ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA INKLYUZIV TA'LIMNING RO'LI

Egamberdiyeva Nigora Azizovna
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi p.f.f.d; CHDPU, Chirchiq, O'zbekiston
https://orcid.org/0009-0001-1670-7890
nigoraazizovna1991@gmail.com
+998917771709
Ro'zmetova Farangiz
Talaba, CHDPU, Pedagogika fakulteti, Chirchiq, O'zbekiston
farangizrozmetova86@gmail.com
+998947785200
Hamidova Mohichehra
Talaba, CHDPU, Pedagogika fakulteti, Chirchiq, O'zbekiston
eshbori2003@gmal.com
+998953272830
Omonova Dildora
Talaba, CHDPU, Pedagogika fakulteti, Chirchiq, O'zbekiston
Odilbekomonov007@gmail.com +998903782477
O'ktamboyeva Bonu
Talaba, CHDPU, Pedagogika fakulteti, Chirchiq, O'zbekiston
oktamboyevabonu@gmail.com +998970461118

Annotatsiya: Maqola alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning ijtimoiylashtirish jarayonida inklyuziv ta'limning ahamiyati va samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maktablarda inklyuziv ta'limni joriy etish orqali bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari, muloqot qobiliyati va mustaqil ishlash salohiyati qanday rivojlanishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Alohida ehtiyojli bolalar, inklyuziv ta'lim, ijtimoiylashtirish, maxsus pedagogika, individual yondashuv, rivojlanish ko'nikmalari.

Аннотация: Статья посвящена изучению роли и эффективности инклюзивного образования в процессе социализации детей с особыми образовательными потребностями. В статье анализируются теоретические основы, методологические подходы и практическое применение инклюзивного образования. Также приводятся сведения о том, как внедрение инклюзивного образования в школах способствует развитию социальных навыков, коммуникативных способностей и самостоятельности детей.

Ключевые слова: Дети с особыми образовательными потребностями, инклюзивное образование, социализация, специальная педагогика, индивидуальный подход, навыки развития.

Abstract: Article is dedicated to studying the role and effectiveness of inclusive education in the socialization of children with special educational needs. The paper analyzes the theoretical foundations, methodological approaches, and practical implementation of inclusive

education. It also provides information on how inclusive education in schools contributes to the development of social skills, communication abilities, and independent work potential of children.

Keywords: Children with special educational needs, inclusive education, socialization, special pedagogy, individual approach, developmental skills.

Kirish.

Bugungi kunda inklyuziv ta’lim tizimi davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarni maktab muhitiga integratsiya qilish va ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda inklyuziv ta’limning roli katta. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PQ-4860-sonli qaror bilan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va ularni umumta’lim maktablariga integratsiya qilish chora-tadbirlari belgilangan.[1] Inklyuziv ta’lim nafaqat bolalarning akademik muvaffaqiyatini oshirishga, balki ularning ijtimoiy faolligi, muloqot qobiliyati va mustaqil ishlash salohiyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu bois, so‘nggi yillarda O‘zbekiston maktablarida inklyuziv ta’limni joriy etish, maxsus pedagoglarni jalb qilish va ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali alohida ehtiyojli bolalarning jamiyatga moslashuv jarayoni samarali amalga oshirilmoqda. Maqola doirasida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning ijtimoiylashtirish jarayonida inklyuziv ta’limning samaradorligi va uning amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi.

Inklyuziv ta’lim masalalari so‘nggi yillarda nafaqat O‘zbekiston, balki jahon miqyosida ham keng tadqiq qilinmoqda. O‘zbek olimlaridan F.U. Qodirova va D.A. Pulatova “Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot” darsligida inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, uning metodik yondashuvlari va amaliy qo‘llanilishi batafsil tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida alohida ehtiyojli bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, maxsus pedagoglar ishtirokida individual yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, F.U. Qodirova va boshqalar tomonidan tayyorlangan “Maxsus pedagogika asoslari” o‘quv qo‘llanmasi alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar bilan ishlashda nazariy va amaliy asoslarni belgilaydi.

O‘zbekiston kontekstida Feruz Ablayarovning “O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim: joriy o‘zgarishlar va taraqqiyot yo‘nalishlari” maqolasi inklyuziv ta’limning maktab tizimidagi amaliy samaradorligi, davlat siyosati va normativ-huquqiy bazasini tahlil qiladi. Shu bilan birga, X.Sh. Yunusova tomonidan yozilgan “Sensor integratsiya” darsligi inklyuziv ta’limda sensor integratsiya metodikasining ahamiyatini va bolalarning ijtimoiy va emosional rivojlanishiga ta’sirini ko‘rsatadi. Chet el va rus olimlari ham inklyuziv ta’limning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganib, turli konseptual yondashuvlarni ishlab chiqqan. Masalan, L. Florian va B. Norwich inklyuziv ta’limning nazariy asoslari va diversifikatsiya metodlarini tahlil qilib, o‘quv jarayonida alohida ehtiyojli bolalarni qo‘llab-quvvatlash usullarini bayon qilgan. O.A. Kozlova (Rossiya) va T. Loreman (AQSh) esa maktablarda inklyuziv ta’limni amalga oshirish jarayonidagi pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘quvchilarning mustaqil ishlash salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar bergan. UNICEF va UNESCOning global tahlillari ham inklyuziv ta’limning ijtimoiylashtirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Ular

1. [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, PQ-4860, 2020 yil 13 oktabr.

ta'kidlaganidek, inklyuziv ta'lim tizimi bolalarning akademik yutuqlari bilan birga, ijtimoiy va emosional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada metodologik yondashuv sifatida kompleks tahlil va kuzatuv usullari qo'llanildi. Tadqiqotlar quyidagi usullar asosida olib borildi:

1. Nazariy tahlil: O'zbekiston, Rossiya va xorij olimlari tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, darsliklar va qo'llanmalar tahlil qilindi.
2. Kuzatuv: Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etilgan sinflarda alohida ehtiyojli bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari, muloqot va faollik darajasi kuzatildi.
3. Tahliliy metod: Kuzatuv natijalari jamlangan, ularning ijtimoiylashtirishdagi samaradorligi statistika va jadval ko'rinishida tahlil qilindi.
4. Taqqoslash: O'zbekiston tajribasi chet el va rus maktablari tajribasi bilan solishtirildi, shuningdek, inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shu metodologik yondashuvlar asosida maqolada alohida ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashtirish jarayonida inklyuziv ta'limning roli ilmiy asosda ochib berildi va amaliy tavsiyalar berildi.

Natijalar.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimi alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni jamiyatga integratsiya qilish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim vosita sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Prezidentning PQ-4860-sonli qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilgan ishlar natijasida inklyuziv ta'lim tizimi respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablariga keng joriy etildi.

2023-2024 o'quv yilining birinchi yarim yilligida 530 ta maktabda inklyuziv ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, jami 1 195 nafar alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar qamrab olindi. Ularning 449 nafari (37,6%) qiz bolalar, qolganlari esa o'g'il bolalar hisoblanadi. Bolalarning sinf bo'yicha taqsimlanishi shunday: 1-sinf - 515 nafar, 2-sinf - 401 nafar, 3-sinf - 245 nafar, 4-sinf - 17 nafar, 5- va 7-sinf - 4 nafardan, 8-sinf - 3 nafar, 9-sinf - 5 nafar va 10-sinf - 1 nafar. Hududlar bo'yicha inklyuziv ta'lim maktablari quyidagi tarzda taqsimlangan: Qoraqalpog'iston Respublikasi - 44 ta, Andijon viloyati - 46 ta, Buxoro viloyati - 23 ta, Jizzax viloyati - 43 ta, Qashqadaryo viloyati - 37 ta, Navoiy viloyati - 17 ta, Namangan viloyati - 61 ta, Samarqand viloyati - 20 ta, Sirdaryo viloyati - 16 ta, Surxondaryo viloyati - 41 ta, Toshkent viloyati - 65 ta, Farg'ona viloyati - 47 ta, Xorazm viloyati - 18 ta va Toshkent shahri - 52 ta.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim joriy etilgan maktablarda 115 nafar maxsus pedagoglar faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash va individual rivojlanishni ta'minlash maqsadida 12 metodik va 10 tavsiyaviy qo'llanma ishlab chiqilgan. Ushbu qo'llanmalar alohida ehtiyojli bolalarning akademik va ijtimoiy rivojlanishiga samarali yordam beruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shuningdek, elektron portal orqali olib borilgan ariza va subsidiya monitoringi inklyuziv ta'lim tizimining ijtimoiy samaradorligini namoyish qiladi. 2023 yilda nogironligi bo'lgan yoshlar tomonidan jami 1 557 ta ariza kelib tushgan bo'lib, shundan 1 120 ta (72%) ariza rad etilgan va 437 ta (28%) ariza tasdiqlangan. Tasdiqlangan arizalarga jami 5,1 mlrd. so'm subsidiya ajratilib, natijada 356 nafar yoshlar mustaqil tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'lgan. Bu esa nogironligi bo'lgan yoshlarga ijtimoiy faollik, mustaqil ishlash va jamiyatga integratsiya bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratgan.

Inklyuziv ta’lim tizimi alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy faolligi, muloqot va mustaqil ishlash qobiliyatini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ota-onalar, pedagoglar va jamoatchilikning hamkorligi orqali bolalarning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiylashtirilishi jarayoni sezilarli darajada yaxshilangan. Inklyuziv ta’lim tizimini yanada kengaytirish, maxsus pedagoglar va resurslarni yetarli darajada ta’minlash, shuningdek hududlar bo‘yicha inklyuziv maktablar sonini barqaror oshirish orqali alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlash mumkin. Bu esa davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha bolalarni ijtimoiylashtirish, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini rivojlantirish hamda teng imkoniyatli ta’limni ta’minlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Muhokama.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’lim tizimi alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning ijtimoiylashtirilishi va shaxsiy rivojlanishida samarali vosita sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. 2023-2024 o‘quv yilida 530 ta umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida joriy etilgan inklyuziv ta’lim orqali 1 195 nafar bolalar qamrab olinganligi, ularning sinf va hududlar bo‘yicha aniq taqsimlanishi tizimning respublika miqyosida barqaror ishlashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, maktablar kesimida qiz va o‘g‘il bolalarning nisbati ham muvozanatli bo‘lib, jinsiy tenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosatning samaradorligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Hududlar kesimida inklyuziv ta’lim maktablarining taqsimlanishi viloyatlar va shaharlar o‘rtasidagi resurslar, maxsus pedagoglar mavjudligi va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini ham hisobga olgan holda amalga oshirilgan. Masalan, Toshkent viloyati (65 ta) va Namangan viloyati (61 ta)da inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablar soni boshqa hududlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, bu hududlarda aholining zichligi, maktablar tarmog‘i va maxsus pedagoglar yetarliligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Navoiy viloyati (17 ta) va Sirdaryo viloyati (16 ta) kabi hududlarda maktablar sonining kamligi ham inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishda qo‘shimcha resurs va qo‘llab-quvvatlashni talab qilishi mumkin.

Inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan 115 nafar maxsus pedagoglar bolalarning individual rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan metodik va tavsiyaviy qo‘llanmalar pedagoglar va ota-onalarga ko‘mak beruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda, bu esa alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning o‘quv jarayoniga to‘liq moslashishida samaradorlikni oshiradi. Elektron portal orqali amalga oshirilgan ariza va subsidiya monitoringi ham inklyuziv ta’lim tizimining ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Tasdiqlangan 437 ta arizaga jami 5,1 mlrd. so‘m subsidiya ajratilishi, natijada 356 nafar yoshlar mustaqil tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yganligi, inklyuziv ta’limning bolalarni nafaqat akademik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mustaqil bo‘lishiga ham imkon yaratishini ko‘rsatadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nafaqat bolalarning akademik yutuqlarini oshiradi, balki ularning ijtimoiy integratsiyasi, muloqot ko‘nikmalari va jamiyatdagi faolligini ham rivojlantiradi. Ota-onalar va jamoatchilikning hamkorligi bu jarayonning samaradorligini yanada kuchaytiradi. Shu bilan birga, hududlar kesimida mavjud resurslar va maxsus pedagoglar soni inklyuziv ta’limning rivojlanishiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim omil ekanligi kuzatildi. Inklyuziv ta’lim tizimini yanada kengaytirish, maxsus pedagoglar va qo‘llab-quvvatlovchi resurslarni yetarli darajada ta’minlash, shuningdek hududlar bo‘yicha inklyuziv maktablar sonini barqaror oshirish orqali alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlash mumkin. Bu esa

davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha bolalarni ijtimoiylashtirish, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini rivojlantirish hamda teng imkoniyatli ta’limni ta’minlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Xulosa.

O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’lim tizimi nafaqat alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, balki ularning jamiyatga integratsiyasini ta’minlashda muhim vosita ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktablarda inklyuziv ta’limning joriy etilishi bolalarning ijtimoiy faolligi, kommunikativ ko‘nikmalari va mustaqil ishlash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Tizimning samaradorligi nafaqat maxsus pedagoglar faoliyatiga, balki ota-onalar va jamoatchilikning hamkorligiga ham bog‘liq. Elektron ariza va subsidiya monitoringi tizimi orqali qo‘llab-quvvatlashning aniq mexanizmlari ishlab chiqilgani, bolalarning kasb-hunarga yo‘naltirilishi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi amaliy natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hududlar kesimida inklyuziv ta’limni yanada kengaytirish, pedagog xodimlarning malakasini oshirish va boshlang‘ich korreksion sinflar sonini ko‘paytirish tizimning barqaror rivojlanishi va samaradorligini oshirish uchun zarur. Kelajakda inklyuziv ta’limni rivojlantirish orqali nafaqat bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va teng imkoniyatlar prinsipi mustahkamlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, PQ-4860, 2020 yil 13 oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, PQ-57, 2021 yil 21 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Nogironligi bo‘lgan yoshlarga subsidiyalar ajratish tartibi”, 341-son, 2022 yil 21 iyun.
4. Feruz Ablayarov, “O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim: joriy o‘zgarishlar va taraqqiyot yo‘nalishlari”
5. F.U. Qodirova, D.A. Pulatova, Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot, darslik, Toshkent, 2021.
6. F.U. Qodirova va boshqalar, Maxsus pedagogika asoslari, o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2020.
7. Vygotsky, Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes, Harvard University Press, 1978.
8. L.S. Vygotsky, Pedagogicheskaya psikhologiya, Moskva, 2005.
9. M. Ainscow, Developing Inclusive Education Systems: What Are the Levers for Change?, Journal of Educational Change, 2020.
10. M. Florian, The SAGE Handbook of Special Education, SAGE Publications, 2014.
11. R. Slee, Inclusive Education: From Policy to Practice, Routledge, 2011.
12. E. V. Davydova, Psycho-pedagogical Support of Children with Special Needs, Moskva, 2019.